



VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

NKMK — yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati!

KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№16 (802), 2025-yil 29-avgust

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 34 yilligiga

ERTANGI KUNGA ISHONCH VA YUKSAK MAQSADLAR SARI



Quvondiq SANAQULOV,
"Navoiy kon-metallurgiya
kombinati" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh
direktori

Aziz do'stlar, qadrlı hamkasblar!

Avvalo, sizlarni eng ulug', eng aziz bayramimiz – O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan qizg'in va samimiy mu-borakbod etaman.

Bugungi kunda serquyosh diyorimizning sha-har va qishloqlarida qutlug' bayram shukuhi ke-zib yuribdi. Shunga mos tarzda odamlarimizning ruhiyati tetik, ertangi kunga ishonchi yuksak. Darvoqe, mustaqilligimizning tarix sahi-fasiga o'tayotgan har bir yilida istiqlol naqadar bebaho ne'mat ekanini, uning tarixiy ahamiyatini yanada chuqur anglab yetmoqdamiz. Mustaqillik tufayli milliy davlatchiligimiz qayta tiklandi, O'zbekiston yangi davrga qadam qo'ydi. Istiqlol sharofati bilan jahon hamjamiyatidan munosib o'r'in egalladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbe-kiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'tiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorida ta'kidlanganidek, "Aynan mustaqillik, barcha siyosiy-huquqiy kafo-latlarni o'zida mujassam etgan holda, "O'zbekis-ton – 2030" strategiyamizni amalga oshirish, jami-yatimizda tinchlik, do'stlik va hamjihatlik muhitini kuchaytirish, inson qadri, huquq va manfaatlarini ta'minlash, mintaqamizda yaxshi qo'shnichilik alo-qalarini yanada rivojlantirish, dunyo mamlakatlari bilan faol hamkorlik qilish, Vatanimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishda beqiyos tayanch bo'lib xizmat qilmoqda".

Bu yil mustaqillik bayramining "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!", degan bosh g'oya aso-sida kutib olinayotgani muhtaram Prezidentimiz-niing xalqparvarlik siyosatiga to'la hamohangligi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar natijasida jami-yatimiz, fuqarolarimizning ongi va tafakkuri o'z-



garmoqda. Shunday ekan, mustaqilligimizni ko'z qorachig'idek asrashimiz, tinch-totuvlikda o'tayot-gan har bir kunimizning qadriga yetishimiz kerak. Istiqlol tufayli xalqimiz erki, ozodligi, boyliklariga o'zi egalik qilish huquqiga erishdi. Shukrlarkim, azaliy qadriyatlarimiz qaytdi, zamon ruhiga mos tarzda nishonlana boshlandi. Barcha islohotlari-mizning ruhi va mazmuniga "Inson qadri uchun, el-yurt baxti uchun!" degan ezgu g'oya chuqur ki-rib bormoqda.

Kombinatimiz ahil jamoasi uchun muhtaram Yurtboshimiz tashabbuslari bilan qabul qilingan dasturlar, yaratib berilayotgan imkoniyatlar eri-shayotgan yutuqlarimizda asosiy omil bo'lmoqda. Kombinat jamoasining tinimsiz mehnati natijasida 2026-yilgacha mo'ljallangan investitsion loyihalar dasturi ijrosini 2024-yilda, muddatidan ikki yil oldin bajardik. Istiqlol bayramini kombinatimizda barcha iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha sakkiz oylik reja-larni bajarish bilan kutib olyapmiz.

Joriy yilda yirik loyiha – "Zarmitan" konida "Skipli" shaxta stvoli ishga tushirildi. Shuningdek, "Muruntov", "Dovg'iztov" va "Qoqpatas" konlarida investitsion loyihalar, 7-gidrometallurgiya zavodi-niing qayta ishlash quvvatini 25 million tonnaga, 3-gidrometallurgiya zavodi quvvatini 10 million

tonnaga yetkazish bo'yicha ishlar jadallik bilan olib borilmoqda.

Mustaqillik bayrami arafasida, kombinatimiz tomonidan Zarkent qo'rg'onida Janubiy kon bosh-qarmasi mutaxassislari, ishchi-xodimlari uchun barcha qulayliklarga ega, to'rt qavatli, 32 xona-donli turar-joy binosi foydalanishga topshirildi. Qutlug' sana nishonlanayotgan shu kunlarda ya-ngi xonadonlar kalitlarini olgan hamkasblarimiz uchun Mustaqillik kuni qo'shaloq bayram bo'lyapti. Endilikda ularning ko'ngillari xotirjam, ishlari yana-da barakali bo'lishi aniқ.

Tarixiy sanalar, qutlug' bayramlar arafasida hasharlar tashkil etib, yangi bog'-rog'lar yaratish, shahar va qishloqlarimizning ko'cha va xiyobon-larini tozalash, obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy qadriyatimiz, urf-odatlarimizdir. Respubli-kamizda 22-23-avgust kunlari Mustaqillik bayrami sharafiga umumxalq hashari o'tkazildi va bunda qariyb 50 ming kishilik jamoamiz faol ishtirok etdi.

Prezidentimizning istiqlol bayrami arafasidagi Farmoniga muvofiq, "Pistali" koni bosh muhandisi o'rinbosari O'ktam Quدراتov "O'zbekiston Res-publikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" fax-riy unvoni, Markaziy kon boshqarmasi sex ustasi

Lochin Xidirov "Mehnat shuhrati" ordeni, 3-avto-baza boshlig'i Rashit Tursunov "Do'stlik" ordeni, Shimoliy kon boshqarmasi direktori Naim Amonov va "Muruntov" koni portlatuvchisi Shuhrat Yodgo-rovlar "Shuhrat" medali, "Navoiyuran" davlat kor-xonasining "Uran va noyob metallar geologiyasi" ilmiy-ishlab chiqarish markazi geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi bosh geologi Umarjon Hamroyev "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan geolog" faxriy unvoni bilan taqdirlandilar. Bu, ja-moamiz, konchi va metallurgiya sohasi xodimlari mehnatining yuksak darajadagi e'tirofidir.

Bayram kunlari kombinat bo'linmalari mehnat jamoalari, faxriylar uchun bayram dasturxonlari yozilib, ularga izzat-ikrom ko'rsatilmoqda, arzon-lashtirilgan oziq-ovqat yarmakalari tashkil etil-moqda.

Aziz do'stlar!

Siz, azizlarni, sizlar orqali butun jamoamiz ish-chi-xizmatchilari, muhandis-tenik xodimlarini mus-taqilligimizning o'ttiz to'rt yillik bayrami bilan yana bir bor chin qalbizdan tabriklaymiz.

Barchangizga mustahkam sog'lik, oilaviy baxtu saodat, xonadonlaringizga fayzu baraka, ishlari-ngizda omadlar tilaymiz.

"NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AKSIYADORLIK JAMIYATI BOSHQARUVI RAISI – BOSH DIREKTORI QUVONDIQ SANAQULOVNING KORXONA JAMOASIGA MUROJAATI

Qadrlı hamkasblar!

Yangi O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil qadam qo'ymoqda. Inson qadri-ni ulug'lash, odamlarni hayotidan rozi qilish, mamla-katimizning rivojlangan davlatlar qatoridan muno-sib joy olishiga erishish muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnomaligida olib borilayot-gan islohotlarning bosh maqsadiga aylandi.

Yurtimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'min-lash orqali aholi turmush farovonligini oshirish bo'yicha muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. Bu borada chuqur o'ylangan qarorlar qabul qilinib, aholini ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilgan siyosat olib borilmoqda. Keyingi sakkiz yilda O'zbekiston-niing yalpi ichki mahsuloti ikki baravarga oshdi. 2030-yilda bu ko'rsatkichni 200 milliard dollarga yetkazishdek ulug'vor marra olingan.

Mehnatlash va fidoyi xalqimiz bu marrani al-batta zabt etadi! Ana shunday ulug'vor ishda faol ishtirok etib, Vatanimizni taraqqiy etgan davlatlar safida bo'lishiga hissa qo'shish har birimizning va-tanparvarlik burchimizdir.

Jamoamizning fidoyi muhandis va mutaxassislari, aziz yoshlar!

Millatning qayta tug'ilishi, avvalo uning qalbi-da sodir bo'ladigan uyq'onishdir. O'zini anglagan, yurtning kelajagi uchun mas'uliyatni his etadigan xalqgina yuksak taraqqiyot sari dadil intiladi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi ham keyingi yillarda misli ko'rilmagan yutuqlarga erishyapti. Yangi O'zbekiston deb atalayotgan davr kon-metallurgiya sanoati uchun ham, kom-binatimiz jamoasi uchun ham chinakam yuksalish yillari bo'lyapti.

Bunga so'nggi davrda ishga tushirilgan yirik ishlab chiqarish obyektlari misolida o'zlaringiz gu-vohsizlar! Kombinat tarixida sakkiz yilda 4 ta yangi zavod ishga tushirilgani buning yorqin dalilidir.

Sirasini aytganda, bugun sizlar kombinatning yangi tarixini yozyapsizlarki, bundan har qancha faxrlansangiz arziydi. Erishayotgan yutuqlarimiz jamoamiz hamjihatligi, kasbiga sadoqati hamda mutaxassislarning yuksak professionalligi samarasidir.

Davomi 2-betda

KORXONAMIZ TARAQQIYOTI YO'LIDA

Mehnat jamoamiz eng ulug' va eng aziz bayram – O'zbekiston davlat mustaqilligining 34 yilligini "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostida ko'tarinki ruhda qarshi olmoqda. Barcha ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bajarilganligini faxr bilan ta'kidlamochimam. Kon boshqarmamiz "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining qimmatbaho metallar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan etakchi bo'linmasi bo'lib, uning tarkibidagi "Dovg'iztov", "Sharqiy", "Auminzo-Amantoy", "Turbay" konlari, 3 va 5-gidrometallurgiya zavodlari, Avtomobil va Temir yo'l transporti boshqarmalari, yana o'ndan ortiq sex, laboratoriya, uchastkalarda 14 ming nafardan ziyod muhandis-mutaxassislar hamda ishchi xodimlar faoliyat olib borishmoqda.

Davomi 2-betda

MUSTAQILLIK – KATTA IMKONIYATLAR DEMAK

Mustaqillik yurtimiz taraqqiyotining oydin yo'lini boshlab berdi. O'tgan davr mobaynida siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotimizda ulkan o'zgarishlar, zalvorli yutuqlar, samarali ishlar amalga oshirildi. Albatta, bu yutuqlarning zamirida bitta so'z – tinchlik-xotirjamlik mujassam. Chunki yurtimizda barqarorlik hukm surishi, sarhadlarimiz daxlsizligi, fuqarolarimiz turmushidagi halovat ana shu tinchlik degan ulug' ne'matning mevasidir. Shu boisdan mustaqilligimizning 34 yilligi "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan ezgu g'oya asosida nishonlanishi yurtdoshlarimizning Vatanimizga bo'lgan yuksak mehri va cheksiz faxru iftixoridan dalolatdir.

Davomi 3-betda

MUHM VAZIFALAR MAS'ULIYAT YUKLAYDI

Yangilanish va taraqqiyot yo'lidan dadil odimlayotgan O'zbekistonda bugun iqtisodiyot, ijtimoiy soha, ta'lim, fan va madaniyat kabi barcha jabhalardagi islohotlar mamlakatimizni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Kon boshqarmamiz jamoasi ham bu tarixiy o'zgarishlardan chetda qolmayapti. Ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xodimlarning malakasini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish doimiy e'tiborimizdagi markazida bo'lmoqda. Bu, korxonamiz iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

ISTIQLOL SHAROFATI BILAN

Mustaqillik bizga o'z taqdirimizni o'zimiz belgilash huquqini berdi, adolatli, demokratik, insonparvar jamiyat qurish, o'z milliy davlatchiligimizni rivojlantirishga imkoniyat yaratdi. Qancha ta'riflamaylik, uning qadri-ni, ahamiyatini to'laligicha bayon eta olmaymiz. Faqat bir narsa ayonki, bu bebaho ne'matni har kim o'z taqdirida tutgan o'rni, o'z hayoti, oilasi misolida anglaydi, his etadi. Oltmish bir yillik tarixga ega Janubiy kon boshqarmasi uchun keyingi yillar haqiqiy rivojlanish davri bo'ldi. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yangi loyihalar, yangi quvvatlarni ishga tushirish hisobiga ish hajmi, ish o'rinlari oshib, zamonaviy ishlab chiqarish tarmog'iga aylandi.

Davomi 2-betda

Davomi 2-betda

“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AKSIYADORLIK JAMIYATI BOSHQARUVI RAISI — BOSH DIREKTORI QUVONDIQ SANAQULOVNING KORXONA JAMOASIGA MUHOJIRATI

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Jamoamiz – katta kuch! Mutaxassis va muhandislarimiz bilimli, salohiyatli, ishchi-xodimlarimiz oʻz ishining ustalari sifatida nom qozonganlar. Barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, mushtni bir joyga ursak, yoshlarimizga yoʻl koʻrsatib, tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlasak, bundanda yuksak marralarni egallashimizga ishonchimiz komil.

Davr Vatanimizning iqtisodiy qudratini oshirish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizdan unumli foydalanish, kombinat rivoji yoʻlida ilm bilan shugʻullanish, tinimsiz izlanish, islohotlar tezroq kutilgan samaralarini berishiga hissa qoʻshishimizni talab qilmoqda. Davlatimiz ham bizdan shuni kutmoqda.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish har bir korxonadan boʻzorda oʻz oʻmini saqlab qolish maqsadida ishlab chiqarishga ilm-fan va innovatsion texnologiyalarni doimiy ravishda joriy etib borishni taqozo etyapti. Bu, konmetallurgiya sanoati korxonalari oldiga

ham dolzarb vazifalarni qoʻymoqda. Jahon bozorida qimmatbaho metallarga boʻlgan talabning keskin oshib borayotganligi bilan bir qatorda muammolar ham paydo boʻlmoqda. Bu tabiiy jarayondir.

Dunyo boʻyicha qimmatbaho metallar resurslari kamayib borayotgan bir paytda bu sohada faoliyat olib borayotgan kompaniyalar oʻrtasida ilmiy va texnologik raqobat yanada kuchaymoqda.

Ahil jamoamiz esa har qanday qiyinchiliklarni yengib oʻtishga qodir. Men

bunga, sizlarning har biringiz oʻz ish joyingizda fidoyilik namunalari koʻrsatib, zimmangizdagi vazifalarni bajarishingizga, kombinatda yillar davomida shakllangan anʼanalarga sodiq qolib, korxonamiz shuhratini oshirishga hissa qoʻshishingizga ishonaman.

Buning uchun izchil izlanish, sohadagi ilgʻor tajribani oʻrganish hamda ishlab chiqarish jarayonlariga keng qoʻllanish, eng muhimi siz, aziz hamkasblarning gʻayrat-shijoatingiz, ahil jamoaning ongʻli aʼzosi sifatida bundan faxrlanish hissingiz joʻsh urishi lozim.

Men bu soʻzlarni bejizga aytayotganim yoʻq. Shu kunlarda kombinat boʻlinmalari rahbarlaridan tortib, mutaxassislar va ishchi-xodimlar, taqdirini Navoiy konmetallurgiya kombinati, konmetalluriyadek mashaqqatli, ammo sharafli sohaga bagʻishlagan barcha insonlar jonkuyarlik, fidoyilik koʻrsatishlari kerak. Bir soʻz bilan aytganda, ahilligimiz, ertangi kunga ishonchimiz sinovdan oʻtmoqda.

Bugun kechagidan yaxshi boʻlmogʻi,

ertangi kunimiz bugungidan afzal boʻlishi kerak. Ilmimiz, izlanishimiz, jasoratli mehnatimiz va vatanparvarligimiz, bir-birimizga hurmat-eʼtiborimiz faoliyatimizning bosh mezoniga aylanishi dardkor. Shunda biz koʻzlangan marra-larimizga erishamiz va yorugʻ yuz bilan “men NKMK xodimiman” deya faxrlana olamiz.

Bu – kombinatimiz dovrgʻini yanada oshirish, Yangi Oʻzbekistonimizni yangi bosqichga olib chiqishimizdagi muvaffaqiyatlarimizning garovi boʻladi!

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 34 yilligiga

KORXONAMIZ TARAQQIYOTI YOʻLIDA



Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Soʻnggi yillarda amalga oshirilgan yirik investitsion loyihalar korxonamiz uchun yangi istiqbollar ochib bermoqda. Jumladan, qiymati 281 million AQSH dollari boʻlgan “Dovgʻiztov” va Qoqpatas” oltin konlarida maʼdan qazib olish (III navbati) kabi muhim ahamiyatga molik investitsion loyihalar hisobiga kon boshqarmasining ishlab chiqarish quvvati oshdi. Ayni paytda korxonamiz yiliga 132 million kubometr togʻ jinslarini qazib chiqarish va 15 million tonna maʼdanni qayta ishlash quvvatiga ega. Istiqbolli loyihaning 3-gidrometallurgiya zavodiga tegishli bosqichi boʻyicha amalga oshirilgan ishlar, ayniqsa diqqatga sazovordir. Korxonada 9, 10-biooksidlash modulining ishga tushirilishi biooksidlash sexining kengayishi hamda maʼdanni qayta ishlash quvvatini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatli. Natijada amaldagi 48 ta bioreaktorga yana 12 ta bioreaktor qoʻshildi. Bu, sulfid konsentratlari ishlab chiqarish hajmini 25 foizga, yarim tay-

yor mahsulot hajmini 12 foizga oshirish imkonini beryapti.

Maʼlumki, konchilik ishlarini bajarishda togʻ jinslarini konveyer liniyalari orqali tashish eng qulay, samarali va tejamkor usuldur. Shu boisdan ana shu texnologiyani oʻzlashtirish va qoʻllashga eʼtibor berilyapti. Kon boshqarmasi tarixida ilk bor “Dovgʻiztov” konida uzunligi 1 ming 900 metr, eni 2 metr boʻlgan davriy oqim texnologiyasi majmuasi ishga tushirildi. Zamonaviy majmuani bunyod etishda besh ming tonna ogʻirlikdagi metall-konstruksiyalardan foydalanildi.

Oldimizga qoʻyilgan vazifalarning oʻz vaqtida va sifatli uddalanishi koʻp jihatdan korxona texnika bazasining muttasil mustahkamlab borilishiga bogʻliq. Kon boshqarmamizda ogʻir yuk tashuvchi va togʻ-kon texnikalari yangilanmoqda. Ogʻir yuk tashuvchi texnikalardan unumli foydalanish evaziga yuqori samaradorlikka erishyapmiz. Yil boshidan buyon Yaponiyaning “KOMATSU” kompaniyasida ishlab chiqarilgan 45 ta avtoagʻ-

dargich keltirilib, ayni paytda ulardan “Qoqpatas”, “Dovgʻiztov” konlari va “Turbay” karyerida foydalanilmoqda. Joriy yil oxiriga qadar yana 6 dona shunday texnika vositalari olinadi.

Zamonaviy texnika vositalari hisobiga yoʻl qurilish va kon texnikalari parki ham kengaymoqda. Yangilanish dasturi doirasida 2 ta frontal yuklagich, koʻp funksiyali yuk koʻtargich, yuk koʻtarish quvvati 16 va 25 tonna boʻlgan 4 ta avtokran, konlarda ishchilarni tashiydigan 2 ta maxsus avtobus, joylarda texnik xizmat koʻrsatishga moslashtirilgan maxsus avtomobil olinganligi va ishlatilayotganligi fikrimizning dalilidir. Ekologik xavfsizlikni taʼminlash, yonilgi-moylash materiallari sarfini kamaytirish maqsadida 3 dona elektromobil va gibrid avtomobili xarid qilinib, foydalanish uchun 1-avtomobil korxona-siga topshirildi.

5-gidrometallurgiya zavodi texnologik jarayonlariga ishlab chiqarish koʻrsatkichlarini yaxshilashga yoʻnaltirilgan oʻzgartirishlar kiritilmoqda. Sulfidli maʼdanlardan oltin ajratib olishni koʻpaytirish maqsadida flotboyitmani ishqorli qayta ishlash boʻyicha sanoat sinovlari olib borilmoqda. Atrof-muhitga chiqariladigan gazlar tarkibidagi zararli moddalarni minimal darajaga kamaytirish uchun zavodning filtrlash, quritish va kuydirish sexining gaz tozalash boʻlimiga zamonaviy elektrofiltr oʻrnatish moʻljallangan. Zavodda joriy yilning yetti oyida maʼdanni qayta ishlash va mahsulot ishlab chiqarish koʻrsatkichlari oʻtgan yilning shu davriga solishtirganda mos tarzda 127,6 va 120 foizni tashkil etyapti. 2025-yilda kon boshqarmasi boʻlinmalarida 13 milliard 240 million soʻmlikdan koʻproq mahalliylashtirilgan, 1 milliard 816 million soʻmlikdan ziyod import oʻrmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilib, bu boradagi rejalar bajarilishiga erishildi. Ahil jamoamizning gʻayrat-shijoati bilan yutuqlarni yanada koʻpaytiramiz.

Naim AMONOV,
Shimoliy kon boshqarmasi direktori.



ISTIQLOL SHAROFATI BILAN

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Istiqlolimizning 34 yilligiga toʻyona sifatida ishga tushirilgan Skipli shaxta stvoli Oʻzbekiston konmetallurgiya sanoati tarixida yangi bosqichni boshlab beradi. Eni olti yarim metr, chuqurligi ming metr boʻlgan mazkur inshoot oʻzining ilgʻor muhandislik-qurilish, innovatsiya va raqamli texnologiyalar yechimlari asosida barpo etilganligi bilan noyobdir. Bu ishlarda xorijiy hamkorlar “Mine Construction Alliance s.r.o.” kompaniyasi bilan birga “NKMK” AJ va Janubiy kon boshqarmasi vakillari, Zarafshon qurilish boshqarmasi, “Sanoatelektromontaj” tresti qurovchilari, shuningdek, ukrainalik, qozogʻistonlik mutaxassislar amaliy koʻmaklari bilan faol ishtirok etishdi. Bu stvol ishga tushirilishi maʼdan tashish unumdorligini oshirish, xarajatlarini kamaytirish bilan birga 90 ta yangi ish oʻrni yaratish imkonini berdi. Undan keladigan yillik iqtisodiy samaradorlik 44,5 milliard soʻm deb baholanmoqda.

Ushbu qurilmalar har jihatdan xavfsiz va tejamkor. Misol uchun, 20 tonna togʻ jinsini yer osti avtoagʻdargich yer yuzasiga olib chiqishi uchun ikki soat vaqt, shu bilan birga, yer osti texnikalari, yoqilgi-moylash materiallari va boshqa xarajatlar talab etilgan boʻlsa, hozirda Skipli stvolga oʻrnatilgan skiplar orqali 20 tonna togʻ jinslarini yer yuzasiga olib chiqishga atigi 10 daqiqqa vaqt ketadi. Qurilma elektr energiyasi hisobiga ishlagani bois, ekologik jihatdan atrof-muhitga mutlaqo salbiy taʼsiri yoʻq. Natijada vaqt sarfi va yoqilgi materiallari 60-70 foizgacha iqtisod qilindim.

Shaxta stvollari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida toʻliq raqamlashtirilgan. Butun faoliyati markaziy operatorlik puliti orqali boshqariladi. Ular yordamida ish jarayonlari doimiy kuzatilib, yuk tashish aniq hisob-kitoblar orqali monitoring qilib boriladi. Bundan tashqari, ogohlantiruvchi signallar orqali har qanday noxush holatning oldini olish imkoniyati ham mavjud.

Janubiy kon boshqarmasida investitsiya loyihalari asosida “Asosiy” shaxta stvolini +480 metr sathdan +0.00 metr sathgacha chuqurlashtirish va “10-sonli Berk” (Slepoy) vertikal shaxta stvolini +600 metr sathdan - 10 metr sathgacha chuqurlashtirish boʻyicha qurilish ishlari jadal olib borilmoqda. “Asosiy” shaxta stvoli va “10-sonli Berk” (Slepoy) vertikal shaxta stvolining asosiy vazifalari ishchi-xodimlar va jihozlarni shaxtaga tushirib-chiqarish, shaxtadan yer osti suvlarini yer yuzasiga haydash, shaxtani toza havo oqimi bilan taʼminlash hamda shaxtadan togʻ jinslarini chiqarish hisoblanadi.

Kombinat solnomasida 4-gidrometallurgiya zavodi qurilishi muhim oʻrin egallaydi. Zavod kombinat mutaxassislari aql-zakovati, fidokorona mehnati bilan 11 oyda barpo etildi. Zavod maʼdandan oltin ajratib olish koʻrsatkichi

boʻyicha 93,5 foizlik koeffitsient bilan kombinat metallurgiya sanoatida birinchi oʻrinda turadi.

“Zarmitan” koni – Oʻzbekiston konmetallurgiya sohasida birinchilardan boʻlib ochilgan tarixiy kon hisoblanadi. Istiqbolli bu konda 2054 yilgacha xomashyo olinishi hisobotlarda qayd qilingan. Bu hali shu davrga qadar geologiya-qidiruv ishlari natijasida aniqlangan zaxira. Mutaxassislarimiz fikricha, qidiruv ishlari davomida kon umri yanada uzayishi aytilmoqda. Qolgan konlar boʻyicha ham bu kabi eʼtiroflarni aytish mumkin. Istiqlol bayrami shodiyonalari nishonlangan kunlarda qoʻrgʻonda kon boshqarmasi xodimlari uchun 32 xonadondan iborat 4 qavatli turar joy binosi foydalanishga topshirildi.

Boshqarmamizning asosiy boʻlinmalari joylashgan Zarkent qoʻrgʻoniga zamonaviy ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish korxonalari bilan birga, infratuzilma ham kirib keldi. Koʻp qavatli turar-joylar, qator ijtimoiy soha obyektlari qurildi. Ichimlik suvi, elektr energiyasi, gaz tarmoqlari taʼminoti yaxshilandi. Qoʻrgʻon toʻliq markazlashgan kanalizatsiya tarmogʻiga ulandi, bogʻ-rogʻlar barpo etildi. Qoʻrgʻonda ishchi-xodimlar, yosh oilalar va harbiylarga moʻljallangan koʻp qavatli binolar soni 23 taga, muhandis-texnik xodimlar uchun yotoqxona soni 5 taga yetdi. Zamonaviy suv havzas (akvapark), 200 oʻrinli “Konchi” madaniyat uyi, “Yoshlar” sport majmuasi, mehmonxona, ishchilar oshxonalari, yongʻin xavfsizligi, maishiy xizmat binolari, qator savdo doʻkonlari, ovqatlanish shoxobchalari va boshqa binolar bunyod etildi.

“Zarmitan” oltin-ruda zonasi konlari negizida kon-ruda kompleksining quyi sathlarini (0.00m. gacha) oʻzlashtirish” texnik-iqtisodiy asosiga koʻra Zarmitan konida “Er osti kon texnikalari va ishchilarning joylashuvini xabarlash, aloqa va signalizatsiya kompleks tizimi” joriy etildi va ushbu tizimni “Gʻujumsoy” koniga ham joriy etish ishlari jadal olib borilmoqda. Yer osti kon ishlari toza havo oqimi bilan taʼminlash maqsadida “Zarmitan” konida “Bosh” shaxta stvoliga qoʻshimcha shamollatish qurilmasini oʻrnatish ishlari olib borilmoqda.

Ulkan jamoamiz asosan yoshlar, yosh mahalliy kadrlardan tashkil topgan. Kombinatsion muhandislik maktabida shakllangan navqiron avlod vakillari yirik boʻlinmalar, zamonaviy texnika va texnologiyalarni boshqarib kelayapti. Jamoamiz bilan bizga bildirilgan yuksak ishonchni oqlab, yurtimiz iqtisodiy taraqqiyoti, kombinatimiz rivojiga xizmat qilishdan aslo toʻxtamaymiz. Zero, mamlakatimiz buguni va ertangi kuniga xizmat qilish barchamiz uchun muqaddas burch, birinchi darajali vazifa boʻlib qolaveradi.

Tolliboy YULDASHEV,
Janubiy kon boshqarmasi direktori.

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Tarkibida 1-GMZ, 6-GMZ, “Qoraqoʻton” koni, “Arslontov” koni va avtogaraji, “Pistali” koni va avtogaraji kabi boʻlinmlar boʻlgan “Qizilqum” kon boshqarmasida oltin va temir kuporosi kabi iqtisodiyot va sanoatimiz rivojida muhim ahamiyatga ega boʻlgan mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. “Daykali”, “Baxtli”, “Dalomil”, “Qorator”, “Qumsoy”, “Qoraqoʻton”, “Pistali” konlarida olib borilayotgan ochiq va yer osti kon ishlari koʻlamlarining kengayayotganligi boshqarmamiz uchun yangi imkoniyatlarni yaratayapti.

Texnik va texnologik yangilanish, ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion gʻoyalarning qoʻllanilishi natijasida 1-sonli gidrometallurgiya zavodida maʼdanni qayta ishlash yillik koʻrsatkichi 1 million 930 ming tonnani, 6-sonli gidrometallurgiya zavodida esa 5 million 150 ming tonnani tashkil etyapti.

Ahil jamoamiz yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan yanada yuksak marralarni koʻzlab mehnat qilmoqda. Istiqbolli maʼdan manbalarini oʻrganish tufayli yangi konlar ochilmoqda. Jumladan, joriy yilda “Pistali” koni maydonida “2-Gʻarbiy Pistali” koni foydalanishga topshirildi.

Mustaqillik bayramining 34 yilligini yaxshi iqtisodiy koʻrsatkichlar, munosib mehnat sovgʻalari bilan kutib olaymiz.

Jamoamizning fidokorona mehnati tufayli kon boshqarmamizda barcha ishlab chiqarish koʻrsatkichlari yuzasidan joriy yilning yetti oylik rejalarini sharafla bilan bajarildi. Maʼdanni qazib olish – 103,4 foizga, maʼdanni qayta ishlash – 101 foizga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish – 106,3 foizga uddalandi.

“Qizilqum” kon boshqarmasidagi kon va texnologik taʼmirlash sexida oʻtgan davrda karyer va shaxta texnikasi uchun import oʻrmini bosuvchi 56 turdagi 322 dona, 352 million soʻmlik ehtiyot qismlar ishlab chiqarildi. Energoresurslardan samarali foydalanish va innovatsion texnologiyalarni qoʻllash hisobiga yetti oyda 29,3 milliard soʻmlik iqtisodiy tejamlorlikka erishildi.

Butun kombinatimizda boʻlgani kabi “Qizilqum” kon boshqarmasining ham asosiy boyligi bu murakkab ishlab chiqarish muammolarini hal qilishga qodir, yangicha fikrlovchi mutaxassislar



va ishchi-xodimlardan iborat mehnatsevar jamoadir. 3 ming 900 nafardan ortiq ishchi-xodim mehnat qilayotgan jamoaning 30 foizini korxonada ishlab chiqarish va ijtimoiy faoliyatiga munosib hissa qoʻshayotgan yoshlar tashkil etishadi. Davr talabidan kelib chiqib nafaqat asosiy ishlab chiqarishni kengaytirish, balki ijtimoiy sohani rivojlantirishga ham yetarli eʼtibor berilyapti. Kon boshqarmasining ijtimoiy siyosati ishchi-xizmat-chilarga munosib mehnat va yashash sharoitlarini taʼminlashga qaratilgan. Zero, mehnat kishisiga gʻamxoʻrlilik, inson qadrini ulugʻlash – davlatimiz siyosatining bosh yoʻnalishlaridan biridir. Masofadagi konlarda ishlaydigan ishchilar yaxshi yashashi va unumli ishlashi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

“Pistali” koni va 6-gidrometallurgiya zavodi hududida, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Davlatimiz Rahbarining viloyatga tashrifida 2025-yilni viloyatda “Alisher Navoiy yili” deb eʼlon qilish taklif etilgandi. Bu tashabbus doirasida “Pistali” koni va 6-gidrometallurgiya zavodi hududida 165 gektar maydonda bogʻ yaratildi, unga buyuk mutafakkir Alisher Navoiy nomi berildi. Ommaviy hasharlarda kombinat va uning boʻlin-

mali ishchi-xodimlari tomonidan choʻl iqlimiga mos 296 ming tup mevali, manzarali va buta koʻchatlari ekildi. Suvni tejash va koʻchatlarni parvarishlash uchun 142 gektar maydonda tomchilatib sugʻorish tizimi yaratildi. Mazkur bogʻning barpo etilishi nurotalik 46 nafar bogʻbonning doimiy, 5 nafar kishini mavsumiy ish bilan taʼminladi.

Mustaqillik bayrami arafasida kon boshqarmamiz ishchi-xodimlari oʻrtasida “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” shiori ostida maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar, davra suhbatlari, tarixiy shaharlarga turistik sayohatlar tashkil etilmoqda. Bunday tadbirlar jamoamiz aʼzolarining kayfiyatini koʻtarish, ularning Vatanga boʻlgan muhabbatini yanada kuchaytirishga qaratilgan. Kon boshqarmasi boʻlinmalari ishchi-xodimlari uchun bayram dasturxonlari bezatilib, konsert dasturlari namoyish etilyapti.

Bundan buyon oldimizda yanada ulkan vazifalar turibdi va bu zimmamizdagi masʼuliyatimizni yanada oshiradi. Ishonchim komilki, kon boshqarmamiz jamoasi fidokorona mehnati bilan Yangi Oʻzbekistonning ravnaqiga oʻz hissasini qoʻshaveradi.

Avaxon EZOXONOV,
“Qizilqum” kon boshqarmasi direktori.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 34 yilligiga

O'zbekiston iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega korxonamiz nafaqat respublikamiz, balki xalqaro maydonda ham o'z nufuzini tobora mustahkamlab bormoqda. So'nggi yillarda olib borilgan islohotlar, zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish natijasida korxona jadal taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Bunda loyiha ofisining tashkil etilishi, geologiya-qidiruv ishlarining jadallashuvi va ESG tamoyillarining joriy etilishi muhim o'rin tutyapti. Korxonada uran zaxirasining yillik o'sish sur'atlari 330 foizgacha va burg'ilash hajmida 155,5 foizgacha bo'lishi barqaror rivojlanishining yaqqol isbotidir. Dunyoning yirik kompaniyalari bilan birgalikdagi loyihalar orqali "Navoiyuran" global uran bozorida munosib o'rin egallayapti.



Djama Fayzullayev,
"Navoiyuran" DK Bosh direktori

ISHONCHLI HAMKORGA
AYLANISH YO'LIDA

Korxonaning asosiy drayver nuqtasi – uran qazib olish va mineral xomashyo bazasini rivojlantirishdir. Yil boshidan buyon 15 ming 708 tonna uran zaxiralari o'sishiga erishilib, yirik reja 184,8 foizga bajarildi. Shuningdek 1 million 301 ming 984 pogon metr dan ortiq burg'ilash ishlari amalga oshirilib, bu boradagi reja ham ortig'i bilan ado etildi.

150 milliard so'm mablag' evaziga 33 dona yangi burg'ilash uskunasi xarid qilinganligi o'sishni ta'minlashning asosiy omili bo'lyapti. Ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashtirilishi ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga imkon bermoqda. "Uran qazib olishning axborot tahliliy boshqaruv" SCADA Dashboard Analytics tizimi va "Laboratoriya ma'lumotlarini avtomatlashgan boshqaruv" (lab. navoiyuran.uz) tizimlari ishga tushirilishi ishlab chiqarishni onlayn nazorat qilishni osonlashtirdi. Bu, ekologik toza usullarning qo'llanishi va mahsulot tannarxining pastligini ta'minlab, korxonaning raqobatbardoshligini oshirmoqda.

"Navoiyuran" DKning transformatsiya jarayonlari jadallashib, moliyaviy, korporativ va ekologik sohalarida muhim yutuqlarga erishilmoqda. Masalan, 2024-yilda SRK Consulting kompaniyasi bilan hamkorlikda 17 ta muhim kon JORC standartlariga muvofiq baholandi, natijada uran zaxiralari 70,7 ming tonnaga baholandi. 2025-yilda esa 11 bosqichda 40 ta kon baholaniib, mineral resurslar 115,6 ming tonna, ruda zaxiralari 63,4 ming tonnaga yetdi. Bu xalqaro standartlarga o'tish korxona faoliyatining shaffofligi va ishonchligini yanada oshirdi.

Korxona ilk marotaba Avstraliyaning Sidney shahrida o'tkazilgan World Nuclear Fuel Market konferensiyasida taqdimot bilan ishtirok etdi va nufuzli xalqaro hamjamiyatda katta qiziqish uyg'otdi.

Moliyaviy sohada erishilgan natijalar ham e'tirof etishga arziydi. 2024-yilda Standard&Poor's Global Ratings dan VV- barqaror reytingi olindi, bu O'zbekistonning boshqa yirik korxonalardan yuqori ko'rsatkich. 2025-yilda Fitch Ratings tomonidan IDR BB- va SACP BB- reytinglari berildi, shuningdek, Sustainable Fitch dan ESG reytingi 3 daraja (55 ball) qo'lga kiritildi. Bu reytinglar korxonaga 300 million dollarlik yevroobligatsiyalarni London fond birjasida 6,7 foiz kupon stavkasi bilan joylashtirish imkonini berdi – bu O'zbekiston korxonalari orasida eng past stavka hisoblanadi. Investorlar bilan o'tkazilgan roadshow'lar (London, Abu-Dabi, Nyu-yorkda 100 dan ortiq investor bilan uchrashuvlar) talabni 1,3 milliard dollar-ga yetkazdi, bu talabdan 4,3 barobar yuqori.

Loyiha ofisi tashkil etilganidan buyon 50 dan ortiq mamlakatdan 100 ga yaqin kompaniya bilan aloqalar o'rnatildi. Masalan, Avstraliyaning WNFME konferensiyasida ilk bor taqdimot qilindi, 30 dan ortiq hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Fransiya (Orano Mining), Yaponiya (JOGMEC), Xitoy (CNNC), Rossiya (Rosatom) va boshqalar bilan amaldagi loyihalar, shuningdek, Mo'g'uliston, Indoneziya, AQSh, Kanada kabi yangi maydonlardagi istiqbolli hamkorliklar korxonaning global obro'yini oshirmoqda. 2025-yil oxiriga qadar Avstra-

liyaning Cauldron Energy bilan Yanrey Uranium Project bilan 4 ta qo'shma investitsion loyihani boshlash rejalashtirilmoqda.

Korporativ boshqaruvda o'zgarishlar yuz berib, Kuzatuv kengashiga chet ellik mustaqil a'zolar va maslahatchilar jalb qilindi. 1C ERP tizimi joriy etilib, moliyaviy hisobotlar IFRS standartlariga o'tkazildi, Deloitte tomonidan auditdan o'tkazildi.

Geologiya-qidiruv ishlari "Navoiyuran" DK faoliyatining asosiy ustuni bo'lib, 2025-yilda "Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta to'ldirish" davlat dasturi doirasida 48 ta loyihaviy yo'nalishda amalga oshirilmoqda. Maqsad – yillik uran zaxiralarini 8 500 tonnaga oshirish va bashoratli resurslarni 12 500 tonnaga baholash.

Joriy yilda asosiy geologiya-qidiruv ishlari Markaziy Qizilqum konlari hududida, shu bilan birga, Kuljuqtog', Tuvak-tav, Madaniyat, Janubiy Ziyovuddin va Sahoba kabi istiqbolli maydonlarda olib borilmoqda.

"Navoiyuran" tomonidan barcha ishlab chiqarish maydonlarida mehnat xavfsizligi standartlari joriy qilingan, qator hududlarda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish loyihalari amalga oshirilmoqda.

Xususan, ESG tamoyillarini joriy etish orqali ISO 9001, 14001, 45001, 27001, 50001 standartlari qo'lga kiritildi, shuningdek, ISO 37001 va 37301 sertifikatlari olindi. Pricewaterhouse Coopers bilan birgalikda 2022-2023-yillar uchun Barqarorlik hisoboti tayyorlandi, iqlim strategiyasi ishlab chiqildi. "Yashil energiya" sertifikatlarini xarid qilish va Scope-3 chiqindilarini hisoblash ishlari atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan. Bu choralar korxonaning ijtimoiy mas'uliyatini oshirib, jamiyat va atrof-muhitga foyda keltiradi.

Biz o'z oldimizga qo'ygan maqsad – uran sanoatida mintaqaviy yetakchi, xalqaro maydonda ishonchli hamkorga aylanish yo'lida qadam-baqadam borgan holda, barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda davom etamiz.

MUSTAQILLIK –
KATTA IMKONIYATLAR DEMAK

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Kombinatimiz, qolaversa, boshqarmamizning yuksalish davri aynan mustaqillik yillariga to'g'ri keladi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi kunda 17 ming nafardan ortiq turli kasb egalari mehnat qilayotgan boshqarmamiz nafaqat kombinat, balki respublikamizda o'z o'ini va salohiyatiga ega tashkilot sanaladi.

"Muruntov" koni kombinatimiz tomonidan qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Konni o'zlashtirishning 5-navbati 1-bosqich investitsiya loyihasi doirasida qo'llanilayotgan kon-geologik va kon-texnik yechimlar kelajakda kon chuqurligini 1000 metrgacha yetkazish imkonini beradi. Mazkur kon chuqurlashtirish natijasida qazib olinayotgan tog' jinslarini doimiy va vaqtinchalik saqlash joylariga yetkazishda ish samaradorligini oshirish, vaqt hamda xarajat miqdorini qisqartirish uchun davriy oqim texnologiya majmualaridan keng foydalanib kelinmoqda. 2024-yilda kundan 97,8 million kubometr tog' jinslari qazib chiqarilgan bo'lsa, joriy yilning yetti oyida ushbu ko'rsatkich 57,7 million kubometrga yetdi.

Hozirda konning janubiy va shimoliy yon tomonlarida mavjud davriy oqim texnologiya majmualari karyer ichiga uzaytirilib ishga tushirildi. Xususan, ushbu konveyer majmualarining ishga tushirilishi bo'sh tog' jinslarini tashish masofasini 2,5 kilometrdan 3,5 kilometrgacha qisqarishiga olib keldi. Konveyerlar Navoiy mashinasozlik zavodi va Zarafshon ta'mirlash-mexanika zavodida to'liq mahalliyashtirilgan holda tayyorlanmoqda. Hozirda "Muruntov" konini o'zlashtirishning V navbati 2-bosqich yirik investitsiya loyihasi bo'yicha texnik iqtisodiy asoslar ishlab chiqildi. Ushbu investitsiya loyihasini amalga oshirish natijasida kundan yiliga 60 million tonna oltin tarkibli ma'danni 2-gidrometallurgiya zavodiga yetkazib rejalashtirilgan.

Yaqinda "Muruntov" koniga kovshining hajmi 20 kubometr bo'lgan ikkita zamonaviy ekskavator keltirildi. Konda elektr quvvatida ishlaydigan va gidravlik ekskavatorlarning soni 45 taga yetdi. Hozir konda ekskavatorlar, burg'ilash uskunalar kabi 70 tadan ortiq konchilik texnikasi ishlab chiqarishga jalb etilgan.

Istiqbolli konlardan yana biri – bu Tomdi tumanidagi "Bessopan" konidir. Konni o'zlashtirish bo'yicha oltin tarkibli ma'dan qazib olish ishlari jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Qazib chiqarilayotgan ma'dan temir yo'l orqali qayta ishlab uchun 2-gidrometallurgiya za-

vodiga tashilmoqda. Mazkur kundan yiliga 8,5 million tonna ma'dan qazib olinishi rejalashtirilgan.

2-gidrometallurgiya zavodida so'ngi yillarda oltin ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan strategik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Tarkibida oltin bo'lgan ma'danni qayta ishlab sur'atini yanada oshirish maqsadida maydalash sexida o'n bitta tegirmondan iborat beshta yangi blok ishga tushirildi. Zavodda hozir kuniga 153 ming tonnagacha ma'dan qayta ishlanmoqda. Joriy yilning yetti oy davomida 32 million tonnadan ortiq ma'dan qayta ishlanib, reja 100 foizga bajarildi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan muhim ahamiyatga ega investitsion loyihalarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi amaldagi gidrometallurgiya zavodlarida ma'danni qayta ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, 7-gidrometallurgiya zavodida o'tgan 2024-yilda 16 million tonna texnogen chiqindilar qayta ishlagan bo'lsa, joriy yilning yetti oy davomida 11 million tonnadan ortiq texnogen chiqindilar qayta ishlandi. Bugungi kunda korxonada "7-gidrometallurgiya zavodining qayta ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish" investitsion loyihasi doirasida qurilish-montaj ishlari olib borilib, yangi tegirmonlar o'rnatilmoqda. Mazkur loyiha to'liq quvvatda ishga tushirilgach, zavodning yillik qayta ishlab chiqarish quvvatini 25 million tonnaga yetkazish mo'ljallangan. Quvonarli jihati shundaki, zavodlarning ishlab chiqarish jarayonlari to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, bu – ishlab chiqarishni muntazam kuzatib borish, tejamkorlikka erishish, ish sur'atini yanada oshirish imkoniyatini bermoqda.

Markaziy kon boshqarmasining gidrometallurgiya zavodlaridagi texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarida bevosita suvdan foydalanilishi bois korxonalarini suv bilan ta'minlashda "Amudaryo-Zarafshon" suv quvuri muhim ahamiyatga ega. Amudaryo suvi mazkur suv quvurining nasos stansiyalari orqali Zarafshon va Uchquduq shaharlari aholisi va ishlab chiqarish obyektlari, kombinatning gidrometallurgiya zavodlariga kon boshqarmasining Tashqi suv ta'minoti birlashgan energiya xizmati tomonidan yetkazib berilyapti. Hozirgi vaqtda mazkur bo'linmada ham kombinat tomonidan amalga oshirilayotgan "Amudaryo-Zarafshon" suv quvurining uchinchi suv tarmog'ini tortish va nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish" investitsion loyihasi bo'yicha qurilish ishlari yakunlanib, obyekt to'liq quvvatda foydalanishga topshirilish arafasida.

Ushbu loyiha doirasida 158,9 kilometr uzunlikdagi metall quvurlar yotqizildi. Qurilish-montaj ishlari Zarafshon qurilish boshqarmasi tomonidan amalga oshirildi. Nasos stansiyalarida kengaytirish ishlari olib borilib, qo'shimcha 12 ta nasos agregati o'rnatildi. Korxonaning cho'l hududida joylashgan nasos stansiyalari ham zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanib, ishchi-xodimlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Zarafshon shahridan uzoq cho'l hududida joylashgan nasos stansiyalarda mehnat qilayotgan ishchi-xodimlar uchun ichimlik suvi yetkazib berishda muammolar mavjud edi. O'tgan yilda har bir nasos stansiyasida suvni qayta tozalab, filtrlab beruvchi uskunalar o'rnatilishi natijasida bu muammolar o'z yechimini topdi.

Ma'lumki, boshqarmamizning ishlab chiqarish maydonlari shahar hududidan 35-40 kilometr masofada joylashgan. Ishchi-xodimlarni avtomobil va temir yo'l transportlarida ishga olib borish va olib kelish yo'lga qo'yilgan. Bayram kunlari arafasida ishchi-xodimlarimiz uchun kapital ta'mirlangan zamonaviy temir yo'l va avtobus bekatlari foydalanishga topshirildi. Mazkur bekatda beshta kutish zali bo'lib, ularning ichki qismida yo'lovchilar uchun barcha sharoitlar yaratildi. 270 o'rinni yumshoq o'tirgichlar, televizor va konditsionerlar bilan ta'minlandi. Ishchi-xodimlarimizni Zarafshon shahridan "Muruntov" stansiyasiga olib borish va olib kelish uchun 15 ta yangi yo'lovchi vagonlar qatnovi yo'lga qo'yildi. Mazkur vagonlar keng, shinam, zamonaviy ko'rinishga ega, konditsioner va isitish tizimlari, televizorlar bilan jihozlangan bo'lib, har biri 110 ta o'rindiq va 50 ta yo'lovchi turib ketishi uchun mo'ljallangan. Davlatimiz va kombinat rahbariyati jamoamiz oldiga nafaqat mamlakatimiz iqtisodiy qudratini oshirishga munosib hissa qo'shish, balki ishchi-xodimlarning turmush darajasini yaxshilash, ularning hayotdan rozi bo'lib yashashini ta'minlashdek vazifalarni ham qo'ymoqda. Shu boisdan korxonamizning fidoyi va mehnatkash xodimlarini rag'batlantirishga ham alohida e'tibor qaratilyapti.

Boshqarmamiz mehnat ahli istiqloq bayramini mehnat yutuqlari bilan qarshi olmoqda. Joriy yilning 7 oy davomida oltin ishlab chiqarish topshirig'i 100,3 foizga, kumush ishlab chiqarish rejasi 100,8 foizga, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish topshirig'i esa 103,9 foizga bajarildi.

Sherzod KAMOLOV,
Markaziy kon boshqarmasi
bosh muhandisi.

MAHALLIYLASHTIRISH DASTURI – AMALDA

Mustaqillik yillarida "Navoiy mashinasozlik zavodi" ishlab chiqarish birlashmamiz jamoasi ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Shu davrda metall quyishdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan yaxlit tizim yo'lga quyildi. Natijada zavod ulkan korxonaga, haqiqiy ishlab chiqarish klasteriga aylandi. Ayni paytda korxonamizda yiliga 1,8 trillion so'mlikdan ziyod o'n besh ming nomenklaturadagi mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Navoiy mashinasozlik zavodi mahalliyashtirilgan import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha respublikamizdagi eng ilg'or korxonalardan biriga aylandi.

Jumladan, yaqin yillargacha chetdan import qilingan sharli tegirmonlar, gidrosiklon qurilmalar, texnologik quyultirgichlar, zamonaviy metall kesish dastgohlari, reduktorlar, nasoslar, burg'ilash uskunalar uchun ehtiyot qismlar, ekskavatorlarga kovshlar, g'alvirlar va boshqa yuzlab turdagi mahsulotlar bugun o'zimizda ishlab chiqarilmoqdaki, bu valutanii tejab, korxonamizning mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojidagi hissasini yanada oshirmoqda. Yo'l qurilishi texnikalari va og'ir yuk ko'taruvchi avtoag'dargichlarni kapital ta'mirlash faoliyatimizda yangilik bo'ldi. Istiqloq bayramini barcha iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'y-

cha rejalarini bajarib kutib olyapmiz.

Mahalliyashtirish dasturi ijrosi bo'yicha ayniqsa, yuksak natijalarga erishyapmiz, desam, mubolag'a bo'lmaydi. Zavodimizda 2015-yilda 23,4 milliard so'mlik, 2017-yilda 57,6 milliard so'mlik, 2019-yilda 200 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2022-yilda 113 ta loyihani amalga oshirish natijasida bu ko'rsatkich 502 milliard so'mlikka yetdi. O'tgan yili korxonamizda 112 ta loyiha asosida 835 milliard so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarildi. 2025-yilda zimmamizga 1,1 trillion so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish



majburiyatini olganmiz. Bu raqamlar zahirida korxonamizda o'sish sur'atlari va ahl jamoamizning hamjihatligi, fidokorona mehnati o'z ifodasini topgan.

Mamlakatimizdagi gidrometallurgiya zavodlari uchun keng hajmdagi sharli tegirmonlar chetdan valuta hisobiga olib kelinardi. Endilikda bu mahsulot korxonamizda, maqbul narxlarda ish-

lab chiqarilmoqda. 2023-yilda zavod ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish doirasida "Mexanik yig'uv sexini texnik va texnologik qayta jihozlash" loyihasi amalga oshirildi. Mazkur loyiha bo'yicha sexning yangi binosi qurilib, samaradorligi yuqori zamonaviy dastgohlar ishga tushirildi. Mazkur sexning foydalanishga topshirilishi og'irligi 980 tonnagacha bo'lgan sharli tegirmonlar, shuning-

dek, yanchish uskunalar, nasoslar, quyultirgichlar ishlab chiqarish va ularni ta'mirlash, yirik o'lchamdagi jihozlarga ishlov berish imkonini yaratdi. Shuningdek, mexanik-yig'uv sexining yirik gabaritli detallar uchastkasini kengaytirish, uchastkada zamonaviy dastgohlar sonini 7 taga yetkazish mo'ljallanmoqda.

Zavodimizning quymachilik majmuasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini oshirish maqsadida 25 tonnalik zamonaviy metall kesish pechi ishga tushirildi. Bu bilan sexning metall eritish quvvati 30 foizga oshdi. Dastgohsozlik sexini rivojlantirish maqsadida, Janubiy Koreyaning "KOMA TECH" kompaniyasi bilan tokarli-karusel dastgohlarini ishlab chiqarish bo'yicha hamkorlik memorandumini imzolaganmiz.

Muxtasar aytganda, bugun Navoiy mashinasozlik zavodida olib borilayotgan ishlar, qo'lga kiritilayotgan yutuqlar faxrlanishga arzigulik, rejalar esa ulkan. Ishlab chiqarish hajmini yanada oshirib, yuksak marallarni zabt etishimiz Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishga qo'shgan munosib hissamiz bo'lishiga shubha yo'q.

Jahongir HAYITOV,
Navoiy mashinasozlik zavodi direktori.



XIZMAT KO'RSATISH YANADA YAKSHILANADI

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligi – bu yurtimizning ulug'vor taraqqiyot yo'lida bosib o'tgan shonli tarixini, xalqimizning mehnat va jasoratini, Vatan ravnaqi yo'lidagi fidokorona sa'y-harakatlarini yodga olish kunidir. “NKMK jamg'armasi” davlat muassasasi jamoasi ham mehnat yutuqlari bilan Vatan taraqqiyotiga hissa qo'shmoqda. Jamg'armamizda 8 ming 153 nafar xodim tibbiyot va sog'lomlashtirish, ovqatlanirish, sport, madaniyat, ishlab chiqarish hamda boshqa yo'nalishlarda aholi salomatligi, farovonligi va madaniy-ma'naviy hayotini yuksaltirish yo'lida xizmat qilmoqda.

“Navoiy” hududiy boshqarmasida kattalar va bolalar poliklinikasi, “Farhod” madaniyat saroyi, “So'g'diyona” o'yingohi, Sport saroyi binosi, Qurilish-ta'mirlash uchastkasi hamda yotoqxonalarda joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. “Zarafshon” hududiy boshqarmasida Tibbiy-sanitariya qismi, “Ko'l” dam olish maskani hududidagi bino va inshootlar, yotoqxonalarda joriy ta'mirlash ishlari bajarildi. “Uchquduq” shahar “Lochin” sport-sog'lomlashtirish majmuasi, Tibbiy-sanitariya qismining stomatologiya, tug'ruq va xirurgiya bo'limlari ta'mirlanib, zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlandi. Uchquduqdagi madaniyat saroyi, mehmonxona va yotoqxonalarda joriy ta'mirlash ishlari yakunlandi. “Nurobod” balneologik

sanatoriy-profilaktoriyasida mini futbol o'yingohi foydalanishga topshirildi. Tibbiy-sanitariya qismida tibbiy uskunalar, poliklinika va bo'linmalarda mebel jihozlari yangilandi. “Zafarobod” Tibbiy-sanitariya qismi binolari joriy ta'mirlanib, “Ko'kcha” ovqatlanish kombinati omborxonasida avtoturargoh qurildi. Kombinat tizimida mehnat qilayotgan insonlarga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida zamonaviy tibbiy uskunalar keltirilmoqda. Joriy yil oktabr oyiga qadar yurak-qon tomir kasalliklarini aniqlash va davolash samaradorligini oshiruvchi angiografiya apparati ishga tushirildi. Bu esa bemorlarning poytaxt yoki xorijga chiqmasdan, o'z hududida yuqori texnologiyali davolanishiga imkon yaratadi.



Dilshod OCHILOV,
“NKMK jamg'armasi” DM
direktori.

Bu yil 15 milliard 900 million so'm miqdordagi mablag' eng zamonaviy tibbiy uskunalarini xarid qilish uchun yo'naltirildi.

Jamg'arma oshxonalari va bufetlarida noqulay mehnat sharoitlarida ishlovchilarga davolash-profilaktik ovqatlar, sut mahsulotlari va ichimliklar berilishi yo'lga qo'yilgan. “Dovg'iztov” koni oshxonasi zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanib, ishchi-xodimlar uchun qulay sharoitlar yaratildi.

“Nurobod” hududiy boshqarmasi-

da yiliga 322 tonna mineral suv ishlab chiqarish quvvatiga ega yangi ishlab chiqarish maydonchasi ishga tushirildi. Har yili qish-bahor mavsumiga tayyorgarlik doirasida agrofirma va fermer xo'jaliklari bilan hamkorlikda sabzavot, meva va boshqa mahsulotlar zaxirasi yaratilmoqda.

Jamg'armaning asosiy faoliyat yo'nalishlaridan bo'lgan madaniyat va sportda ham yaxshi yutuqlarga erishyapmiz. “Farhod” madaniyat saroyining “Marvarid” va “Farhod” raqs ansambllari Turkiyada bo'lib o'tgan xalqaro ko'rik-tanlovda mamlakatimiz madaniyatini munosib tarzda namoyish etdilar. “Baxti bolalik”, “Skaz” va “Shirin” ansambllari Toshkent shahrida o'tkazilgan qator xalqaro ko'rik-tanlov va festivallarda Gran-pri hamda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdilar. “Uchquduq” madaniyat saroyining “Ekspressiya” estrada raqs ansambli hamda “Konsonans” vokal guruhi ikki xalqaro ko'rik-tanlovda Gran-pri sovrinlariga loyiq topildi. Shuningdek, “Oltin vodiy” madaniyat saroyining “Dilnavo”, “Faunterra” va “Allegro” ansambllari ham xalqaro festivallarda faxrli o'rinlarni egalladilar.

O'tgan yil davomida sportchilarimiz yurtimiz sharafigini munosib himoya qilib, jahon chempionatida 1 ta oltin va 1 ta kumush, Osiyo chempionatida 4 ta oltin, 12 ta kumush, 5 ta bronza, xalqaro turnirlarda 21 ta oltin, 11 ta kumush, 26

ta bronza, respublika miqyosidagi musobaqalarda 145 ta oltin, 112 ta kumush va 135 ta bronza medallarni qo'lga kiritdilar.

Joriy yilning birinchi yarmida sportchilarimiz Osiyo chempionatida 8 ta, xalqaro turnirlarda 16 ta va respublika chempionatlarida 36 ta oltin medal sohibi bo'lishdi.

Jamg'arma tasarrufida 2 ta mehmonxona, 9 ming 371 o'ranga mo'ljallangan 38 ta yotoqxona hamda 629 ta xizmat xonadoni faoliyat yuritmoqda. 2025-yil yanvar-iyun oylarida ishchi-xodimlar va oila a'zolarining yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida ularning 715 nafariga yotoqxonalardan o'rin joy va xonalar ajratildi. “Agama” to'quv-trikotaj fabrikasida jahon standartlariga mos, zamonaviy va tog'-kon sanoati xodimlari uchun mo'ljallangan 50 dan ortiq yangi turdagi maxsus kiyim-bosh modellari ishlab chiqarilmoqda. Kelgusida konchilarning mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladigan yana 20 dan ortiq sifatli va qulay kiyim-kechak turlarini tayyorlash bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

“NKMK jamg'armasi” davlat muassasasi tomonidan aholi va xodimlarga sifatli tez tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida jamg'arma balansiga ikkita zamonaviy “Tez tibbiy yordam” mashinalari hamda oziq-ovqat mahsulotlarini sifatli tashishga mo'ljallangan bitta FAW ru-

sumli sovutgichli avtomobil sotib olinib, foydalanishga topshirildi. So'nggi bir yilda jamg'arma tasarrufidagi obyektlarga umumiy quvvati 230 kVt bo'lgan quyosh panellari, 35 dona quyosh geliokollektorlari o'rnatildi. Joriy yilda yana 200 dona geliokollektor o'rnatish bo'yicha ishlar davom etmoqda. “Zarafshon” hududiy boshqarmasi Tibbiy-sanitariya qismida isitish tizimi uchun 2 ta jamlanma modulli, “Oltin vodiy” madaniyat saroyi tasviriy san'at studiyasi binosi uchun individual qozon, Ijtimoiy obyektlar boshqarmasi “Ko'l” mehmonxonasi hamda Tibbiy-sanitariya qismi dorixona binosini isitish uchun elektr qozonlari o'rnatildi. “Uchquduq” hududiy boshqarmasi ijtimoiy obyektlar uchastkasi va “Zarafshon” hududiy boshqarmasi transport uchastkalari isitish tizimlarida qattiq yoqilg'ida ishlovchi qozonlar o'rnatildi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 2025 yil bahor mavsumida jamg'arma obyektlarida 11 ming dona daraxt va buta ko'chatlari ekildi.

Jamg'armamiz xalqimiz farovonligi va yurtimiz taraqqiyoti uchun o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Jamoamizda boy tajriba, ahilik va yuksak salohiyat bor. Mustaqilligimizning 34 yillini “Vatan uchun, xalq uchun, millat uchun!” degan ezzu shior ostida kutib olib, barcha vazifalarini yuksak mas'uliyat va hamjihatlik bilan bajarishga intilamiz.

■ Dolzarb mavzu

MEHNAT KISHISIGA E'TIBOR

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati har bir ishchi-xodimining mehnat faoliyatidan so'ng, oilasi bag'riga omonlikda qaytishini kafolatlaydi. Zero, kombinatning eng katta boyligi – odamlardir.

Shimoliy kon boshqarmasi jahon e'tirofidagi oltin ishlab chiqaruvchi ushbu gigant kompaniyaning yirik bo'linmasidir. Minglab kon texnikalari, zamonaviy avtotexnikalarga ega mazkur korxonada o'n to'rt ming nafar ishchi-xodim mehnat qilmoqda.

Keskin kontinental iqlim hukmronlik qiladigan Qizilqum cho'lining tabiati o'zgacha. Yozda jazirama va garmisel, qishda ayozning bebosh shamollari mehnatni og'irlashtiradi. Ma'danga yetib borish jarayoni insonlardan jasorat va fidoyilikni talab etadigan mehnatdan iborat. Shuning uchun ham bu hududda – normal, zararli hamda xavfli va zararli mehnat sharoitlari tasniflangan. Kombinat mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bosh boshqarmasi “Shimoliy” boshqarmasi boshlig'i Azim Jumayev rahbarligidagi jamoa mutaxassislari turli xarakterdagi ishlab chiqarish muhitlarida mehnat qilayotgan har bir insonning hayoti va salomatligi muqaddas ekanini eslatib turuvchi yashil chiroqdek ogohlik bilan faoliyat olib boryaptilar.

Hamma davrlarda ham maqsadga eltadigan yo'llardagi qiyinchilik va mashaqqatlar ilm orqali zabt etilgan. Tuproq ostidagi oltin yuksak ilmiy tafakkur xarjlab va katta mehnat safarbar etgan holda qazib olinadi. Ishchilar og'ir kon texnikalarida, portlovchi moddalarga yaqin muhitda mehnat qiladigan “Sharqiy”, “Dovg'iztov” va “Amontoyov” konlarida o'tadigan har bir ish kuni – bu jasorat va ulkan mas'uliyat. Ushbu konlarda, ish joylarida mehnat sharoitlari, mehnat jarayonining og'irligi hamda asbob-uskunalaridan jarohatlanish xavfliligi, zararli va xavfli ishlab chi-

qarish omillarini baholash uchun doimiy ravishda ish o'rnlari attestatsiya qilinadi. Xavf omillari aniqlangan taqdirda ish sharoitlari yangilanadi.

3 va 5-sonli gidrometallurgiya zavodlarida ma'dan tarkibidan metall ajratib olishdek mashaqqatli jarayonda ishchilar hayotiga kimyoviy va yuqori harorat xavfi ta'sirlari mavjud. Mana shunday mehnat sharoitida ishlaydigan xodimlar shaxsiy himoya vositalari – qo'lqop, niqob, ko'zoynak, issiqqa chidamli kiyimlar bilan ta'minlangan, har bir sex shamollatish tizimi, gaz sezish jihozlari va favqulodda holatlar uchun chiqish yo'laklariga ega.

Avtomobil va Temir yo'l transporti boshqarmalari hamda, 1-sonli Avtobazada faoliyat yurituvchi mehnat muhofazasi mas'ullari transport vositalarining texnik holati, yo'lovchilar xavfsizligi va haydovchilarning salomatligini, bo'linmalarda xavfsizlik qoidalarini bajarilishini nazorat va tahlil qiladi, zarurat tug'ilganda tezkor choralar ko'radi.

Kon boshqarmasi ishchi-xodimlari yiliga kamida bir marta to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Bu, ishchilarning salomatlik holatini nazorat qilish va kasb kasalliklarining oldini olishi bilan ahamiyatlidir. Yangidan ishga qabul qilingan xodimlar kirish yo'riqnomasini o'tagach, mehnat muhofazasi bo'yicha tashkil etilgan o'quv kurslarida o'qiydilar.

Avtotexnika boshqaruvchi haydovchi yoki mashinist smena oldidan tibbiy ko'rikdan o'tayotganda, kon ishchisi chang va zararli omillardan himoyalaniish uchun respirator taqayotganda, og'ir yuk tashuvchi haydovchi kar'er nishabliklarida harakatlanayotganda, quruvchi bino uchun

poydevor qo'yayotganda, laborant kimyoviy reagentlar bilan ishlashayotganda, umuman, kon-metallurgiya sanoati uchun xizmat qilayotgan har bir ishchi-xodim va rahbar-mutaxassis ushbu oltin qoidani yodda tutmog'i zarur:

Mehnat muhofazasi rasmiyatchilik yoki qo'g'ozbozlik emas, bu, avvalo o'z hayotiga bo'lgan e'tibor va boshqalar hayotiga nisbatan mas'ullik, mehnat muhofazasi bu – tartib, bilim, javobgarlik va jamoaviy intizomdir.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bosh boshqarmasi mas'ullari, Shimoliy kon boshqarmasi rahbariyati va 1-sonli Birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi bilan birga amalga oshirayotgan, inson hayotiga aloqador mas'uliyatli ishlar zamirida bo'linmalarni yuksak mehnat muhofazasi ilmi va madaniyatiga ega kadrlar bilan muntazam to'ldirib borish va har bir ishchi-xodimning oilasi bag'riga salomatlikda xavfsiz qaytmog'idek muhim vazifalar belgilangan.

Yangi O'zbekiston – bu bag'rda umr atalmish bebaho ne'matga yetgan har bir insonning yarrab, ulkan orzular o'yida yashab, ilm olib, kekssalar aytganidek, qatorda xato bo'lmay, omonlikda qurishdir! Yangi O'zbekiston – bu baxtli bolalarning kulgisi yangraydigan Vatan! Bolajonlarning quvonchlari bardavom bo'lishi uchun ularning ishga otlanayotgan otalari, onalari salomat bo'lmog'i, zarur. Zero, hayot – muqaddas, sog'liq – topilmas xazinadir!

Ulug'bek XALIMOV,
“NKMK” AJ Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bosh boshqarmasi “Shimoliy” boshqarmasi muhandisi.
Nilufar MUYDINOVA,
SHKB Axborot va ma'naviyat-ma'rifat guruhi rahbari.

XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH – BOSH VAZIFA



Navoiy kon-metallurgiya kombinati bo'linmalarining ishchi-xodimlariga munosib mehnat sharoitini yaratib berish, ularning xavfsiz ishlashi, ishlab chiqarish jarayonlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz, noxush hodisalar, shikastlanishlar, kasb kasalliklarining oldini olish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Janubiy kon boshqarmasida ishchi-xodimlarning mehnat muhofazasi yuzasidan madaniyatini oshirish bo'yicha o'qitish va malakalarini oshirish bosqichma-bosqich olib borilmoqda. Kon boshqarmasining 597 nafar rahbar va muhandis-texnik xodimlari hamda 381 nafar ishchi-xodimlarining malakasi oshirildi. 56 nafar ishchi-xodim qayta tayyorlandi, 184 nafari ikkinchi o'rindosh kasblarga o'qitildi.

“Texnologik”, “Ta'qid xaritalari” ishlab chiqilib, takroriy qoidabuzarlik holatlari aks ettirilgan katta

o'lchamli bannerlar ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillari yuqori bo'lgan ish joylariga davlat tilidagi yozuvlarda osib qo'yilayapti. O'quv mashg'ulotlarida mehnat muhofazasi bo'yicha qoida, me'yor, yo'riqnomalarning talablari mazmun-mohiyati keng targ'ib qilinmoqda. Tinglovchilarga ma'ruzalar, videoroliklar va slaydlar orqali qoidalar talablarini bajarmaslikning oqibatlarini, unga amal qilish shartlari batafsil tushuntirilmoqda.

Bu, o'z navbatida ishchi-xizmatchilar, muhandis-texnik xodimlar o'rtasida mehnat muhofazasini kuchaytirish, ularning mazkur yo'nalishdagi ko'nikmalari va mas'uliyatlarni oshirishga xizmat qilmoqda.

Farxod XUDOYQULOV,
NKMK mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bosh boshqarmasi Janubiy boshqarmasi boshlig'i.